

## **MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGI VA RAQOBAT MUHITINING O'ZARO BOG'LIQLIGINI NAZARIY ASOSLARI**

---

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi (PhD)*

**Donaboyev Jahongir Husan o'g'li**

<https://orcid.org/0009-0009-6192-0787>

[jaxongir.donabaev@soliq.uz](mailto:jaxongir.donabaev@soliq.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada soliq ma'murchiligi va raqobat muhitining o'zaro bog'liqligi nazariy jihatdan asoslab berilgan. Soliq ma'murchiligi mamlakat iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyati shaffofligini ta'minlash, fiskal barqarorlikni kuchaytirish hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, adolatli va samarali soliq ma'muriyati bozor ishtirokchilarining teng sharoitlarda faoliyat yuritishiga zamin yaratadi, soliqlardan bo'yin tovlash holatlarini kamaytiradi va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi. Shuningdek, soliq ma'murchiligi jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, soliq siyosatining barqarorligi va institutsional islohotlar raqobatni yanada kuchaytiruvchi omillar sifatida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** soliq ma'murchiligi, raqobat muhiti, fiskal barqarorlik, tadbirkorlik faoliyati, soliqlardan bo'yin tovlash, iqtisodiy resurslar, axborot texnologiyalari, institutsional islohotlar.


**Kirish:** Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq ma'murchiligi va raqobat muhitining o'zaro bog'liqligi dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Soliq ma'murchiligi – bu davlat tomonidan soliqlarni undirish, nazorat qilish hamda soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarni tartibga solish jarayonlari majmui bo'lib, u iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Raqobat muhiti esa xo'jalik yurituvchi subyektlarning teng huquqli sharoitda faoliyat yuritishi, bozor talablariga mos ravishda resurslardan samarali foydalanishi va innovatsion rivojlanishni ta'minlovchi muhit sifatida namoyon bo'ladi.

Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitining o'zaro bog'liqligi iqtisodiy jarayonlar hamda davlat boshqaruvining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega. Bu ikki jarayon o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nafaqat soliq tizimining samaradorligini ta'minlash, balki bozorda adolatli raqobat muhitini yaratishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Soliq ma'murchiligi soliq yig'ish jarayonini samarali tashkil etish, qonunlarga amal qilish va soliq to'lovchilarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir. Uning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- soliqlarni to'g'ri hisoblash va to'lash jarayonini nazorat qilish;
- qonuniy biznes faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish;
- norasmiy iqtisodiyotga qarshi kurashish.

Soliq ma'murchiligi samaradorligi raqobat muhitining barqarorligini ta'minlashda soliq organlari tomonidan adolatli va shaffof boshqaruv tizimi yaratilishi lozim, shundagina tadbirkorlar o'rtasida teng raqobat sharoiti ta'minlanadi.

Raqobat muhiti bozordagi iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi teng va adolatli sharoitlarni ifoda etadi. Samarali raqobat muhiti korxonalarning innovatsiyalarga, samaradorlikni oshirishga va iste'molchilarga arzon hamda sifatli mahsulot taklif qilishga undaydi. Shu bilan birga, raqobat muhiti biznesning qonuniyligi va shaffofligini ta'minlash uchun muhim omildir.



**1-Rasm. Soliq ma'murchiligi va raqobat muhiti o'rtasidagi bog'liqlik munosabatlari<sup>1</sup>.**


Iqtisodiyotni jadal ravishda rivojlanishida soliq ma'murchiligi va raqobat muhiti ahamiyatli bo'lib ularning o'rtasidagi bog'liqlikni olib borilgan izlanishlar natijasi sifatida 1-rasmida batafsil ko'rib chiqqanmiz.

Yuqoridagi rasmda soliq tizimining adolatli bo'lishi bozordagi korxonalar o'rtasida teng sharoitlarni ta'minlaydi. Noto'g'ri soliq siyosati raqobatni buzishi va ayrim subyektlarning noqonuniy afzalliklarga ega bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu o'z navbatida soliq ma'murchiligining samaraliligi norasmiy iqtisodiyotni

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

qisqartirishga va bozor ishtirokchilarining qonuniy ishlashini ta'minlashga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, raqobat muhitining barqarorligini oshiradi. Investitsiya muhitida esa adolatli soliq siyosati va samarali ma'murchilik investorlarning ishonchini oshiradi, bu esa bozorga yangi ishtirokchilar kirishini rag'batlantiradi.

Davlat boshqaruvining strategik vazifalarini bajarishda soliq ma'murchiligi va raqobat muhiti o'zaro bog'liq bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy farovonlikka erishish va milliy rivojlanish uchun muhim o'rin tutadi. Ushbu ikki omil davlatning makroiqtisodiy maqsadlariga erishish va boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishda asosiy vosita hisoblanadi. Soliq sohasida raqobat mazmun jihatdan mamlakat subyektlari moliyaviy va budget munosabatlarida qanday soliq strategiyalaridan foydalanishini o'rganish muhimdir. Bunga soliq stavkalari, imtiyozlar va boshqa vositalarni tahlil qilish kiradi. Xalqaro tajriba, shuningdek, mintaqaviy soliq raqobatida yondashuvlar samarali bo'lgan qimmatli saboqlarni berishi mumkin. Raqobat muhitida hududlarning ishtirokini tartibga solish vositalari sifatida soliqni tartibga solish mamlakat subyektlarining raqobatdosh ustunliklarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Buni 2-rasmda namoyon qilib ketganmiz.



## **2-Rasm. Soliq ma'murchiligi va raqobat muhiti o'rtasidagi bog'liqlik munosabatlari<sup>2</sup>.**

Soliqni tartibga solish vositalari tizimi hududlarning rivojlanishiga hissa qo'shishi va soliq raqobatidagi pozitsiyalarini mustahkamlashi kerak. Hududlarning raqobatbardoshligini baholashda respublika darajada raqobatbardoshlikni baholash metodologiyasi mintaqalarning soliq raqobatida qanchalik muvaffaqiyatli ishtirok etishini aniqlashga imkon beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish raqobatbardoshlikni aniqroq baholashga yordam beradi.

Yuqoridagi sxemada har bir hududning iqtisodiy, tabiiy, va ijtimoiy resurslari turlicha bo'lib, ular soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ahamiyatlidir. Masalan, sanoat korxonalari ko'p hududlarda sanoatga xos soliqlar yuqori ahamiyatga ega bo'ladi, qishloq xo'jaligiga mos hududlarda esa tegishli soliq siyosatini qo'llash muhimdir. Hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi uning soliq tushumlarini shakllantirishda va davlat tomonidan subsidiyalar yoki soliq imtiyozlari berish zaruratida muhim o'rin tutadi. Mahalliy darajadagi rivojlanishga bog'liq ravishda soliq stavkalari va imtiyozlar farq qilishi mumkin.

Soliqlarning hajmi va turlari hududiy resurslarning samarali foydalanilishiga ta'sir qiladi. Masalan, yuqori soliq yuki ishlab chiqarish faoliyatini cheklash yoki biznesning noqonuniy segmentlarga ko'chishiga olib kelishi mumkin. Ayrim hududlardagi resurslarni rivojlantirish uchun berilgan imtiyozlar investitsiyalarni jalb qilishga va iqtisodiy o'sishga rag'batlantiradi. Soliqlar yig'ish jarayonining shaffofligi va tezkorligi tadbirkorlik muhitini yaxshilash yoki aksincha, murakkablashtirishi mumkin.

**Takliflar:** Soliq ma'murchiligini soddalashtirish – bunda soliq to'lovchilar uchun ortiqcha hisobotlar sonini qisqartirish va jarayonlarni birlashtirish zarur. Raqamlashtirishni kengaytirish – bunda elektron soliq tizimlarini barcha hududlarda joriy qilish, real vaqt rejimida nazorat va tahlilni yo'lga qo'yish. Shaffoflikni oshirish – bunda soliq organlari faoliyatida ochiqlik tamoyillarini kuchaytirish, soliq to'lovchilarga tegishli ma'lumotlarni erkin olish imkonini berish. Tadbirkorlar bilan hamkorlikni mustahkamlash – bunda soliq organlari va biznes vakillari o'rtasida muntazam muloqot va maslahatlashuv mexanizmlarini rivojlantirish.

### **Adabiyotlar/Literatura/Reference:**

M.Porter “Mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari “milliy rombi”ning yana 3 ta elementi keltirilgan konsepsiyasi”.

Орлов М.Ю. Совершенствование налогового администрирования: миф или реальность? // Ваш налоговый адвокат, 2006. №6;

N.Ashurova. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish.- Doktorlik ishi. Avtoreferat. T.: 2017.

<sup>2</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.